

Shavkat Mirziyoyev: Mamlakatimizning eng katta boyligi - yoshlar



Ozzbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI

Davlatimiz rahbari xalqqa Murojaatnomasida maktab o'quvchilarini xorijiy tillar va kasb-hunarga o'rgatish zaruratinı aytgan edi. 20 yanvar kuni bu boradagi vazifalar bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi. Tuman va mahallalarning xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilar matabning o'zida 64 xil ishchi kasblarga o'rgatilishi rejalashtirildi.

Bu maqsad joylarda hayotga ko'cha boshladi. Xususan, Andijon tumanidagi 55-umumta'lum maktabi ta'mirlanib, qo'shimcha sharoitlar yaratildi. Matabning bo'sh turgan yerto'lsasi tadbirkorlarga ajratib berilib, yoshlarni kasbga yo'naltirish yo'lga qo'yildi.

Prezidentimiz ushbu xonalarni kirib ko'rdi.

Matabning yuqori sinf o'quvchilari bu yerda tikuvchilik, mebelchilik, qandolatchilik, kosibchilik, savat to'qish, ko'rpa-to'shak tikish kabi yo'nalishlarni o'rganmoqda. Shuningdek, matab hududida avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish, payvandlash, tipografiya, kompyuter xizmati va salonlar tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari kasb o'rganayotgan yoshlar bilan suhbatlashdi.

- E'tibor bersangiz, kasb egallamay o'qishni bitirganlar hayotda qiynaladi, ish topolmaydi. Kimning qo'lida hunari bo'lib, chet tilini bilsa, yo'li ochiq. Sizlarda shunday imkoniyat bor. O'zingizni qiyab, qunt bilan bilim oling, hunar o'rganing. Qarorlar, sa'y-harakatlar qachon natija beradi? Mutaxassis zo'r bo'lsa. Investorlar ham kadrlarning bilim va malakasiga ishonib keladi. Mamlakatimizning eng katta boyligi - yoshlar, - dedi Shavkat Mirziyoyev.



Manba